

Abonent raqamiga oldindan buyurtma amalga oshirish qoidalari

«Raqam tanlash» yoki «Raqamni o'zgartirish» xizmatlariga buyurtma berish maqsadida Mijozning raqamni oldindan tanlash imkoniyatini soddalashtirish uchun Humans rasmiy sayti va Humans Mobil ilovasida Abonent raqami bilan oldindan tanishish va raqamni tanlash imkoniyati mavjud.

Bugurtmani oldindan rasmiylashtirish doirasida Mijoz maxsus interfeysdan foydalangan holda buyurtma rasmiylashtirish paytida tanlash imkoni bo'lgan, Humans tomonidan ajratilgan tartib raqamlar resursida joylashgan raqamlar bilan tanishishi va ularni tanlashi mumkin. Mijoz «[Alohida toifadan raqam tanlash](#)» va «[Raqamni o'zgartirish](#)» xizmatlarini taqdim etish shartlari bilan tanishib chiqishi kerak.

Oldindan amalga oshiriladigan buyurtma doirasida tanlangan Abonent raqamini ularash uchun Mijoz oldindan amalga oshiriladigan buyurtmani rasmiylashtirish paytidan boshlab 72 soat ichida Humans bilan aloqa xizmatlari ko'rsatish uchun Sharhnomalar tuzishi va buning uchun Humans vakiliga oldindan amalga oshiriladigan buyurtmaning rasmiylashtirilishi tugashi bilan olingan oldindan amalga oshiriladigan buyurtma raqamini yoki QR-kodni Sharhnomalar tuzilishigacha oldindan taqdim etishi lozim.

Ko'rsatib o'tilgan shartlar bajarilmaganida Abonent raqamiga oldindan amalga oshirilgan buyurtma bekor qilinadi.

Abonent raqamiga oldindan buyurtma berish tartibi buzilganida, «[Alohida toifadan raqam tanlash](#)» va «[Raqamni o'zgartirish](#)» xizmatlarini ko'rsatish shartlari bajarilmaganida yoki texnik imkoniyat mavjud bo'lmagan hollarda oldindan buyurtma qilingan Abonent raqamini ularash imkoniyatini Provayder kafolatlama maydi.

Tarif va xizmatlarni boshqarish Humans mobil ilovasidan (Illovan) foydalangan holda amalga oshiriladi. Mijoz o'z abonent qurilmasiga illovan o'rnatishi kerak. Mijoz tomonidan Illova o'rnatilmaganida Mijoz uchun yuzaga keladigan salbiy oqibatlar uchun Provayder javobgar emas.